

ANGLIYA ELCHISI ALEKSANDR BYORNSNING BUXOROGA SAYOHATI TAFSILOTLARI

Raimov Abdullo Yuzboy o`g`li

Qarshi Davlat Universiteti Tarix

yo`nalishi 1-kurs magistranti

abdullaraimov997@gmail.com

(99) 336 96 97

Annotation: This article describes the good relations with Bukhara in the form of a trader and the impressions of Alexander Byorns on the people of our country. In this article, you will learn that the Europeans had interesting information about the khans of Central Asia through the work of Alexander Byrn. A. Byorns himself says that Europeans know the basic information about Central Asia through Alexander's historians. A. Byorn's "Journey to Bukhara" reflects his views on the life, history, merchants, artisans and farmers of the area.

Key words: Alexander Byorns, Bukhara, Poykand, Turkiston

Annotatsiya: Bu maqolamda Agliyaning Hindiston orqali jo`natgan elchilari savdogar ko`rinishida Buxoro bilan yaxshi aloqalar olib borilganligi va Aleksandr Byornsning yurtimiz aholisi haqida taassurotlari bayon etilgan. Bu maqolamda Aleksandr Byornsning asari orqali Yevropaliklar O`rta Osiyo xonlilari haqida qiziqarli ma`lumotlarga ega bo`lganini bilib olasiz. A. Byornsning o`zi aytishicha Yevropaliklar O`rta Osiyo haqida asosiy ma`lumotlarni Aleksandr tarixchilari orqali bilishini aytadi. A. Byornsning "Buxoroga sayohat" asari orqali bu yerdagi aholi hayoti, tarixi, savdogarlari, hunarmandlari, dehqonlari haqida qarashlari aks etgan.

Kalit so`zlar: Aleksandr Byorns, Buxoro, Poykand, Turkiston

Aleksandr Byorns (1805-1841, Kobul)— Ost -Indiya kompaniyasining siyosiy vakili. Britaniya hukumati va Hindiston general-gubernatorining maxsus topshirig`i bilan u Hindistondan Afg`oniston, O`rta Osiyo va Eronga yuboriladi (1831—33). B.ning "sayohatidan" asosiy maqsad Afg`oniston, ayniqsa Turkistonni Angliyaning iqtisodiy va siyosiy ta`siriga tortish, Hindiston shimolida joylashgan mamlakatlar to`g`risida ma`lumotlar to`plash hamda Buxoro va Kabul hukmron doiralari bilan savdo va diplomatik aloqalar bog`lash edi. B. Buxoroda bo`lgan vaqtida Turkiston xonliklari haqida, chet davlatlardan Turkistonga keltiriladigan va bu yerdan chetga chiqariladigan mahsulotlar, savdo markazlari va karvon yo`llari haqida ma`lumotlar to`playdi.

B. Turkistondan rus savdosini ta`sir doirasini kamaytirish va Turkiston savdogarlarini Nijniy Novgorod yarmarkasidan Hindiston savdosiga jalb etish orqali Angliya bilan aloqalarni rivojlantirish va Hind daryosining o`rta oqimida Darag`ozixon degan joyda savdo yarmarkasi ochishni tavsiya qiladi. U Kobulda ko`tarilgan xalq qo`zg`oloni davrida o`ldirilgan. B. Afg`oniston va Buxoroga qilgan sayohati to`g`risida ikkita asar ("Buxoroga sayohat" va "Kobul") asarlarini yozib qoldirgan.

B. hozirgi Turkmaniston yerlari orqali Buxoroga yetib kelgunicha bu yerdagi aholilarga shunday ta`rif bergan edi. " Insoniyatning bu buyuk oilasi Kaspiy sohillaridan Balxgacha sayr qiladi", bu yerlik aholi tez-tez yashash joyini o`zgartirib turganligini aytadi. U sayohati davomida bu yerlik turkman qizlarini go`zalligini ta`riflab, Aleksandrni maftun etgan Roksananing yurtdoshlari ekanligini ham aytib o`tgan edi".

Turkistonliklar B.ni yevropalik va nasroniy ekanligini bilishsada ularga yamon munosabatda bo`lishmagan va ular bilan gaplashganda "eshon" atamasini ishlatgan. Aleksandr Byorns aytadi, "nasroniy faqat mahomedizm haqida hurmat bilan gapirishi va bahs-munozaralardan qochish kerak", degan edi.

B. bu yerda fors aholisini qul qilingani haqida shunda deydi; “Fors aholisining asirga olinishi va ularning na e'tiqodi, na noto'g'ri qarashlari hurmat qilinmagan begonalar orasiga majburan surgun qilinishi Afrikadagi qul savdosi kabi inson huquqlari va erkinliklarining buzilishi kabi jirkanchdir deb aytgan”.

Aleksandr Byorns bilan karvon a'zosi bo'lgan Buxoroga qaytishni afzal ko'rgan bir qancha shaxslar ham bor edi. Bu odamlar sahrodagi Marvning tub aholisi edi, to'g'rirog'i, 40 yilcha avval Amir Shohmurod tomonidan Buxoroga zo'rlik bilan buysundirilganlar bo'lib, hozirda aholining eng mehnatkash qismini tashkil etishini, sharqona o'yin-kulgi bilan mashg'ul bo'lib, bo'sh vaqtlarining ko'p qismini Buxoro podshohining ahvoli va ahvoliga taqlid qilib, hikoya qilish bilan o'tkazar edilar.

Shuningdek Aleksandr Byorns ekseditsiyasi qadimiy yodgorliklar bo'yicha aholidan so'rab Baykund (Poykand) xarobalariga duch keladi. Baykund qadimiy shaharlardan biri deb bilishini va Buxorodan yigirma mil uzoqlikda joylashganligini, bir vaqtlar keng suv o'tkazgichlari bilan sug'orilganligini va uning qoldiqlaridan hozirda buni bilish mumkinligini aytadi.

U Buxorodan sotib olgan “Nursukhee” nomli mamlakat tarixining qo'lyozma kitobida bu shahar o'sha poytaxtdan ham qadimiy bo'lib, minglab rabotlar yoki qishloqlardan tashkil topgan shahar sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari, ko'plab savdogarlar bo'lganligi aytiladi, ular Xitoyga va okeanga savdo qilgan; Garchi "durya" qo'llanilgan so'z Oksusni ham anglatishi mumkin deydi. Aleksandr B. tarixni yaxshi bilgan kishi bo'lgan o'zi o'qigan kitoblarining birida hijriyning 240-yillarida Boxorolik bir kishi Bag'dodga borganida o'zini Baykunda yashovchi deb tushuntirganligi aytiladi.

A. B. Buxoroga kelganida bir chet ellikdan gazeta oladi, u Hind daryosini kesib o'tganidan beri gazeta ko'rmagan edi, u olgan gazetalar uchun chet ellikdan qarzdorligin aytadi. Gazetalardan birida bu mamlakatlarda bizdan oldin bo'lgan baxtsiz janob Murkroft haqidagi uzun paragrafnini o'qib chiqadi.

M. Murkroft 1825- yilda Angliyadan O'rta Osiyo xonliklari bilan aloqa o'rnatish va xonliklar ahvoli haqida ma'lumot to'plash uchun junatilgan edi uchun . Buxoroga kelib qaytib ketayotganida ikki hamrohi bilan halok bo'lgan edi.

Aleksandr Byorns boshchiligidagi ingliz missiyasi 1832- yilda Buxoroga kelgan. U o'zini arman savdogari deb tanishtiradi va Buxoro amirligining qo'shbegisi bilan aloqa bog'laydi. Buyuk Britaniya hukumati Hindiston bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida savdo aloqalarini kengayishiga o'zining o'zbek davlatlaridagi ta'sirini o'tkazishda asosiy yo'li deb qaragan edi . Shuning uchun ham Buyuk Britaniya hind savdogarlariga o'zbek davlatlari bilan savdo- sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, A. Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlarini ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi O'rta Osiyoda Buyuk Britaniya savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Aleksandr Byorns . “ Travels into Bokhara”. London- 1965
2. Ilhom Egamberdiyev. “Angliya va Rossiyaning Markaziy Osiyoda 1. mustamlakachilik siyosatidagi raqobatlari”. Toshkent -2018
3. Грулев М. “ Соперничество России и Англии в Средней Азии”. 1. Петербург – 1909
4. www.ziyonet.uz.